
SAVOL-JAVOB



Savol-javob

Savol: PEDAGOGIKA YO'NALISHIDA O'QIYOTGAN TALABALAR BOG'ChALARDA ISHLASHI MUMKINMI ?

Javob: Hukumatning 2018 yildagi 10-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan,

Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishlarida kunduzgi, kechki, sirtqi bo'limlarning 3-4-kurslarida o'qiyotgan talabalar davlat maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Ularga o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotga ega bo'lgan lavozimdagi xodimning bazaviy tarif stavkasi bo'yicha oylik belgilanadi.

Savol: KAFILLIK NIMA

Javob: Qonunchilikka ko'ra kafillik, – shartnoma bo'yicha boshqa shaxsning majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga olish xisoblanadi.

Agar o'sha kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan foizlar to'laydi, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlarini va qarzdor majburiyatini bajarmaganligi tufayli kreditor (Kredit bergan bank) ko'pgan boshqa zararlarni xam to'lashga majbur.

F. Boboyev - So'x tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-13 15:49:51